

SHAHARLARDA UCHRAYDIGAN IJTIMOIIY VA IQTISODIY MUAMMOLARNI KELIB CHIQISH SABABLARI.

D.G'.Mo'minov

Mamasiddiqova M. K

Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaharlarda uchraydigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning ekologik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida urbanizatsiya, aholi sonining ortishi, transport va sanoat faoliyatining kengayishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar hamda ularning aholi turmush darajasiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, atmosfera havosining ifloslanishi, maishiy chiqindilar hajmining ortishi va yashil hududlar qisqarishining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqligi baholandi. Tadqiqot natijasida shaharlarda ekologik muammolarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, ekologik muammolar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, atmosfera ifloslanishi, maishiy chiqindilar, antropogen omillar, yashil hududlar, shahar ekologiyasi, barqaror rivojlanish, aholi zichligi.

Abstract: This article scientifically analyzes the environmental aspects of social and economic problems occurring in urban areas. The study examines the impact of urbanization, population growth, expansion of transport and industrial activities on the ecological environment and living standards of the population. It also assesses the relationship between air pollution, the increase in household waste, and the reduction of green areas with socio-economic processes. Based on the research results, scientific and practical recommendations were developed to reduce environmental problems in cities and ensure sustainable development.

Keywords: urbanization, environmental problems, socio-economic processes, air pollution, household waste, anthropogenic factors, green areas, urban ecology, sustainable development, population density.

Kirish: Ijtimoiy muammolar — jamiyat hayoti va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar bo'lib, ularga ishsizlik, kambag'allik, uy-joy taqchilligi, migratsiya va ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq muammolar kiradi.

Ijtimoiy muammolarning asosiy sabablaridan biri migratsiya jarayonlari bilan bog'liq. Qishloq hududlaridan shaharlarga aholi oqimining ortishi natijasida uy-joy, bandlik va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talab oshmoqda. Bu esa infratuzilmaga tushayotgan yuklamaning kuchayishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy muammolar esa

transport tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ekologik talablarning to'liq bajarilmayotgani bilan izohlanadi.

Iqtisodiy muammolar esa ishlab chiqarish, transport, infratuzilma, resurslardan foydalanish va iqtisodiy rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan murakkab holatlar hisoblanadi. Ushbu muammolar aholi bandligi, daromad darajasi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shaharlarda iqtisodiy muammolarning kelib chiqishi asosan urbanizatsiya jarayonlari, aholi sonining ortishi va infratuzilmaga tushayotgan yuklamaning kuchayishi bilan bog'liq. Ayniqsa, transport tizimidagi tirbandlik, ishlab chiqarish korxonalarining tartibsiz joylashuvi, resurslardan samarasiz foydalanish hamda xizmat ko'rsatish tizimining aholi ehtiyojiga to'liq mos kelmasligi iqtisodiy muammolarni kuchaytirmoqda.

Iqtisodiy muammolarning asosiy ko'rinishlariga ishsizlik, transport xarajatlarining ortishi, infratuzilma yetishmovchiligi va hududiy nomutanosib rivojlanish kiradi. Transport tirbandligi natijasida vaqt yo'qotilishi va yoqilg'i sarfining ortishi iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, aholi sonining tez ortishi uy-joy qurilishi va kommunal xizmatlarga bo'lgan talabni oshirib, iqtisodiy bosimni kuchaytiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda urbanizatsiya jarayonlari natijasida iqtisodiy faoliyatning markazlashuvi ekologik va iqtisodiy muammolarni birgalikda shakllantiruvchi omil sifatida baholanadi. Ayniqsa, sanoat va transport tizimining rivojlanishi ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga iqtisodiy xarajatlarning ortishiga ham sabab bo'lmoqda.

Hozirgi davrda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi shaharlarda turli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Aholi sonining ortishi, migratsiya, transport va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi natijasida ishsizlik, uy-joy muammosi, atmosfera havosining ifloslanishi va maishiy chiqindilar hajmining ortishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy muammolar aholi turmush darajasi va bandlik bilan bog'liq bo'lsa, iqtisodiy muammolar ishlab chiqarish, infratuzilma va resurslardan foydalanish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda ekologik muammolarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni ekologik monitoring tizimini rivojlantirish, atmosfera havosini muhofaza

qilish hamda hududlarda ekologik muammolarni kamaytirishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi¹.

A.A. Soliyevning tadqiqotlarida urbanizatsiya jarayoni shahar hududlarida antropogen bosimni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi hamda aholi va iqtisodiy faoliyatning hududiy zichlashuvi ekologik muammolarni yuzaga keltirishi ta'kidlangan². Xorijiy tadqiqotlarda ham transport va sanoat faoliyatining kengayishi ekologik muammolarni kuchaytiruvchi omillardan biri ekanligi qayd etilgan³.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi shaharlarda uchraydigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning kelib chiqish sabablarini ekologik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Shaharlarda uchraydigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. A.A. Soliyev, A. Qayumov, O. Otamirzayev kabi olimlar urbanizatsiya, aholi joylashuvi va hududiy rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tahlil qilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan P. Newman, J. Kenworthy, M. Castells va D. Harvey ilmiy ishlarida urbanizatsiya, transport va sanoat rivojlanishining ekologik muammolar bilan bog'liqligi yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida antropogen bosimning ortishi natijasida atmosfera ifloslanishi, shovqin darajasi va maishiy chiqindilar hajmi ortishi qayd etilgan.

Mazkur maqolada shaharlarda uchraydigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning kelib chiqish sabablarini o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

-Statistik metod yordamida aholi soni, urbanizatsiya darajasi, transport vositalari va ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi.

-Taqqoslash metodi orqali turli shaharlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar o'zaro solishtirildi.

-Hududiy tahlil metodi asosida muammolarning shaharning markaziy va aholi zich joylashgan hududlarida shakllanish xususiyatlari o'rganildi.

-Kuzatish metodi yordamida Qo'qon shahri hududida transport yuklamasi, shovqin darajasi va ekologik holat bo'yicha amaliy kuzatuvlar olib borildi.

-Ekologik baholash metodi orqali atmosfera havosining ifloslanishi, maishiy chiqindilar va shovqin darajasining aholi salomatligiga ta'siri baholandi.

Natijalar: Tadqiqot davomida shaharlarda uchraydigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning ekologik jihatlari Qo'qon shahri misolida tahlil qilindi.

Hududiy kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari natijasida transport harakati yuqori bo'lgan hududlarda ekologik yuklama darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Qo'qon shahri

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5863-son. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida". – 2019-yil 30-oktabr.

² Soliyev A.A. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019.

³ Newman P., Kenworthy J. Sustainability and Cities. – Washington: Island Press, 2015

markaziy ko'chalarida o'tkazilgan shovqin o'lchovlari natijasida o'rtacha ko'rsatkich 70–74 dB ni tashkil etib, sanitariya me'yorlaridan yuqori ekanligi qayd etildi. Turarjoy hududlarida 55–60 dB, park hududlarida esa 45–50 dB ko'rsatkich kuzatildi. WHO tavsiyalariga ko'ra 55 dB dan yuqori shovqin darajasi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jadval ma'lumotlari asosida urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar kuchliroq namoyon bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, Toshkent shahrida transport tirbandligi, atmosfera havosining ifloslanishi va infratuzilmaga tushayotgan yuklama yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Samarqand va Namangan shaharlarida esa aholi zichligining ortishi uy-joy va bandlik bilan bog'liq muammolarni kuchaytirgan.

Qo'qon shahrida transport vositalari harakatining ortishi natijasida shovqin darajasining oshishi hamda maishiy chiqindilar hajmining ko'payishi kuzatildi. Markaziy ko'chalarda shovqin darajasi sanitariya me'yorlaridan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat transport yuklamasi va urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq ekanligi kuzatildi.

Hududiy tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, urbanizatsiya jarayonlari kuchaygan sari ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlik ham ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari shaharlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ekologik monitoringni kuchaytirish, transport tizimini takomillashtirish hamda yashil hududlarni kengaytirish zarurligini ko'rsatdi.

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi soni va iqtisodiy faoliyat ortgan sari ekologik yuklama ham kuchayib bormoqda. Ayniqsa, transport, maishiy chiqindilar va aholi zichligi shaharlardagi asosiy ekologik muammolarni shakllantiruvchi omillar hisoblanadi.(1-jadval)

O'zbekistondagi ayrim shaharlarda uchraydigan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar tahlili (2024-yil)

Shahar nomi	Aholi soni (ming kishi)	Asosiy ijtimoiy muammo	Asosiy iqtisodiy muammo	Ekologik muammo	Muammo darajasi (%)
Toshkent	3090	Transport tirbandligi	Infratuzilma yuklamasi	Havo ifloslanishi	78 %
Samarqand	620	Uy-joy muammosi	Ishsizlik	Maishiy chiqindilar	64 %
Namangan	690	Aholi zichligi	Bandlik muammosi	Shovqin darajasi	59 %

Shahar nomi	Aholi soni (ming kishi)	Asosiy ijtimoiy muammo	Asosiy iqtisodiy muammo	Ekologik muammo	Muammo darajasi (%)
Andijon	470	Migratsiya	Transport yuklamasi	Atmosfera ifloslanishi	61 %
Qo'qon	270	Ishsizlik va migratsiya	Transport va xizmatlar bosimi	Shovqin va chiqindilar	57 %

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, O'zgidromet va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil hududiy statistik hamda ekologik monitoring ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi⁴.

Muhokama: Olingan natijalar shaharlarda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning ekologik omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida transport yuklamasi, aholi zichligi va maishiy chiqindilar hajmining ortishi ekologik muammolarni kuchaytirayotganligi aniqlandi. Bu holat mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham qayd etilgan. A.A. Soliyev urbanizatsiya sharoitida aholi va xo'jalik faoliyatining hududiy zichlashuvi ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

Qo'qon shahrida o'tkazilgan shovqin o'lchovlari natijasida markaziy ko'chalarda shovqin darajasining sanitariya me'yorlaridan yuqori ekanligi kuzatildi. WHO ma'lumotlariga ko'ra, 55 dB dan yuqori shovqin inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, asab tizimi va mehnat unumdorligining pasayishiga olib kelishi mumkin⁵. Bu esa transport vositalari sonining ortishi shaharlarda nafaqat ekologik, balki ijtimoiy muammolarni ham kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, maishiy chiqindilar hajmining ortishi va yashil hududlar maydonining qisqarishi ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. UNEP hisobotlarida shaharlarda chiqindilarni boshqarish tizimidagi muammolar ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholangan⁶.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, shaharlarda ijtimoiy va iqtisodiy muammolar ekologik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, transport tizimini takomillashtirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda ekologik nazoratni kuchaytirish muammolarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. Hududlar bo'yicha urbanizatsiya va aholi statistikasi; O'zgidromet ekologik monitoring ma'lumotlari; Ekologiya vazirligi hududiy ekologik hisobotlari. – Toshkent, 2024.

⁵ World Health Organization (WHO). Environmental Noise Guidelines for the European Region. – Geneva, 2018.

⁶ United Nations Environment Programme (UNEP). Urban Environmental Challenges Report. – Nairobi, 2023.

Shu sababli shaharlarda ekologik monitoringni kuchaytirish, transport tizimini takomillashtirish va yashil hududlarni kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik muammolarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Shaharlarda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Aholi sonining ortishi, transport vositalari harakatining ko'payishi hamda xizmat ko'rsatish va sanoat faoliyatining kengayishi ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, atmosfera havosining ifloslanishi, shovqin darajasining oshishi va maishiy chiqindilar hajmining ortishi shaharlarda asosiy ekologik muammolar sifatida shakllanmoqda.

Qo'qon shahri misolida olib borilgan kuzatuv va tahlillar natijasida transport yuklamasi yuqori bo'lgan hududlarda shovqin darajasi sanitariya me'yorlaridan yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, aholi zich joylashgan hududlarda maishiy chiqindilar hajmining ortishi va yashil hududlar maydonining qisqarishi ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Bu holat ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning ekologik omillar bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida shaharlarda ekologik muammolarni kamaytirish uchun transport tizimini takomillashtirish, ekologik monitoringni kuchaytirish, chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda yashil hududlarni kengaytirish zarurligi aniqlandi. Shu bilan birga, shaharlarni hududiy rejalashtirishda ekologik omillarga ustuvor ahamiyat berish barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev A.A. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
3. O'zgidromet. Atmosfera havosi monitoringi bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Hududiy ekologik monitoring ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida". – Toshkent, 1996.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5863-son. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida". – Toshkent, 2019.
7. World Health Organization (WHO). Environmental Noise Guidelines for the European Region. – Geneva, 2018.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). Urban Environmental Challenges Report. – Nairobi, 2023.
9. Newman P., Kenworthy J. Sustainability and Cities: Overcoming Automobile Dependence. – Washington: Island Press, 2015.